



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	



HUDUDIIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Turizm va mehmondo'stlik” mutaxassisligi magistranti

E-mail: xusnoraruzimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy turizm klasterlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda klaster yondashuvining mohiyati, turizm sohasida subyektlar o'rtasidagi integratsiya mexanizmlari va uning hududiy rivojlanishga ta'siri yoritilgan. Xususan, Xorazm viloyati misolida turistik salohiyat, infratuzilma holati hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganilib, klaster modelini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Hududiy turizm klasterining samaradorligini baholash uchun turistlar oqimi dinamikasi, xizmatlar hajmi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi va soliq tushumlari kabi mezonlardan foydalanish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: turizm klasteri, hududiy rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, integratsiya, infratuzilma, Xorazm viloyati.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of the formation of regional tourism clusters and the possibilities for increasing their economic efficiency. The study highlights the essence of the cluster approach, the mechanisms of integration among entities in the tourism sector, and their influence on regional development. In particular, using the example of the Khorezm region, the tourism potential, the state of infrastructure, and key economic indicators were examined, and the need to improve the cluster model was substantiated. To assess the effectiveness of a regional tourism cluster, it is proposed to use such criteria as the dynamics of tourist flows, the volume of services, the level of employment, investment, and tax revenues.

Key words: tourism cluster, regional development, economic efficiency, integration, infrastructure, Khorezm region.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы формирования региональных туристических кластеров, а также возможности повышения их экономической эффективности. В исследовании раскрываются сущность кластерного подхода, механизмы интеграции между субъектами туристической сферы и их влияние на региональное развитие. В частности, на примере Хорезмской области изучены туристический потенциал, состояние инфраструктуры и экономические показатели, а также обоснована необходимость совершенствования кластерной модели. Для оценки эффективности регионального туристического кластера предлагается использовать такие критерии, как динамика туристического потока, объем услуг, уровень занятости, инвестиции и налоговые поступления.

Ключевые слова: туристический кластер, региональное развитие, экономическая эффективность, интеграция, инфраструктура, Хорезмская область.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi hududiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim tarmoqlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Turizmning iqtisodiy ahamiyati nafaqat xizmatlar eksportini oshirish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb etishda ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, turizmni alohida subyektlar faoliyati doirasida emas, balki o'zaro bog'langan tizim asosida rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda klaster yondashuvi samarali mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Klaster konsepsiyasi ilk bor ilmiy asoslangan holda Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u hududiy raqobat ustunligini ta'minlashda o'zaro bog'langan korxonalar va institutlarning ahamiyatini asoslab bergan [1]. Mazkur yondashuv turizm sohasida ham keng qo'llanilib, mehmonxonalar, transport xizmatlari, madaniy obyektlar, ovqatlanish shoxobchalari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.



Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida turizmni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakat hududlarining turistik salohiyatidan samarali foydalanish, ichki va tashqi turizm oqimini oshirish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda hududiy turizm klasterlarini shakllantirish orqali turizm infratuzilmasini tizimli rivojlantirish, xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida Xorazm viloyati misolida hududiy turizm klasterini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Xorazm viloyati boy tarixiy-madaniy merosi, arxitektura yodgorliklari va milliy an'analari bilan mamlakatning muhim turistik hududlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Xiva shahrida joylashgan Ichan-Qal'a majmuasi xalqaro ahamiyatga ega madaniy meros obyektlaridan biri bo'lib, hududning turistik jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy adabiyotlarda turizm klasterlarining hududiy rivojlanishga ta'siri keng o'rganilgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Xorazm viloyati sharoitida turizm klasterini tizimli shakllantirish, mavjud resurslarni kompleks baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy turizm klasterlarini shakllantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Klasterlashuv nazariyasining ilmiy asoslari dastlab Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u hududiy raqobat ustunligini shakllantirishda o'zaro bog'langan korxonalar va institutlar tizimi muhim rol o'ynashini asoslab bergan [2]. Porter nazariyasiga ko'ra, klasterlar hududiy iqtisodiyotda innovatsion faollikni oshiradi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlaydi.

Turizm sohasida klaster yondashuvi keyinchalik Anna-Leena Hjalager tomonidan rivojlantirilib, turizm klasterlari hududiy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etilgan [3]. Uning tadqiqotlarida turizm klasterlari mehmonxona xo'jaligi, transport, gastronomiya, madaniy obyektlar va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining integratsiyalashuvi asosida shakllanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, Noel Scott turizm klasterlarini hududiy boshqaruv samaradorligini oshiruvchi hamda davlat-xususiy sheriklikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida baholagan [4].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turizm klasterlarini shakllantirish hududiy resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi [5]. Xususan, tarixiy-madaniy resurslarga boy hududlarda klaster modelini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirishga imkon beradi [6]. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatida turizm klasterlarini shakllantirish masalasini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududiy turizm klasterlarini shakllantirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini o'rganishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli klaster tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda qo'llanildi.

Solishtirma tahlil usuli xalqaro tajriba hamda hududiy imkoniyatlarni qiyoslash orqali samarali klaster modellarini aniqlash imkonini berdi. Statistik tahlil usuli esa hududiy turizm rivojlanishi ko'rsatkichlari dinamikasini baholashda qo'llanildi.

Mazkur metodologik yondashuv hududiy turizm klasterlarini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda baholash hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy turizm klasterlarini shakllantirish imkoniyatlarini baholashda tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyati tanlandi. Mazkur hudud O'zbekistonning eng yuqori turistik salohiyatga ega tarixiy mintaqalaridan biri hisoblanadi. Viloyatning turistik rivojlanishida asosiy rolni Xiva shahri hamda uning tarkibidagi Ichan-Qal'a tarixiy majmuasi o'ynaydi.

Ushbu obyektlar xalqaro miqyosda tan olingan madaniy meros hisoblanib, hududiy turizm klasteri shakllanishi uchun markaziy yadroni tashkil etishi mumkin.

So'nggi yillarda turizm oqimining ortishi hududning klasterlashuv salohiyati mavjudligini ko'rsatmoqda. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, tarixiy merosga asoslangan turizm hududiy iqtisodiy rivojlanishning eng barqaror drayverlaridan biri hisoblanadi.

Xorazm viloyatining asosiy ustunligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- tarixiy merosi;
- madaniy obyektlari;



- ziyorat turizmi salohiyati.

Hududning turizm rivojlanishida tarixiy obyektlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon tajribasiga ko'ra, tarixiy merosga asoslangan hududlar turizm klasterlarini shakllantirishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega hisoblanadi [7]. Bu esa Xorazm viloyatining turizm klasterlashuvi uchun salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi [8]¹

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	O'sish
Mehmonxonalar soni	230 dan ortiq	260 dan ortiq	13 %
Oilaviy mehmon uylari	150 ta	180 dan ortiq	20 %
Turistik tashkilotlar	90 ta	110 dan ortiq	22 %
Yillik turistlar soni	1 mln ga yaqin	1,2 mln ga yaqin	20 %
Turizm sohasida bandlik	18 mingdan ortiq	20 mingdan ortiq	11 %

1-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024–2025-yillar davomida hududda turizm infratuzilmasi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

Xususan:

1. Mehmonxonalar sonining 13 % ga oshishi hududda joylashtirish infratuzilmasining kengayib borayotganini ko'rsatadi.

2. Oilaviy mehmon uylari sonining 20 % ga o'sishi turizmning mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi rolini kuchaytirganini bildiradi.

3. Turistik tashkilotlar sonining 22 % ga ortishi hududda turizm xizmatlari bozorining faollashganini anglatadi.

4. Turistlar oqimining 20 % ga ko'payishi hududning turistik jozibadorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

5. Turizm sohasida bandlik darajasining oshishi xizmatlar sektorining hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur o'sish dinamikasi hududda turizm infratuzilmasining miqdoriy rivojlanishini aks ettiradi. Bu esa hududiy turizm klasterini shakllantirish uchun zarur bo'lgan institutsional va iqtisodiy asoslar mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, infratuzilmaning faqat son jihatdan o'sishi yetarli emas. Uning o'zaro integratsiyasi hamda xizmatlar zanjirining tizimli shakllanishi hududiy turizm klasterining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasining 2024–2025-yillarda barqaror o'sishi hududiy turizm klasterini shakllantirish uchun zarur iqtisodiy va institutsional asoslar mavjudligini ko'rsatadi. Hududiy turizm klasterini shakllantirish natijasida turizm xizmatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayadi. Bu esa xizmatlar zanjirining uzluksiz ishlashini ta'minlab, turistlarning hududda qolish muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududiy turizm klasterlari bandlik darajasi hamda mahalliy iqtisodiyot rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Klasterlashuv kichik biznes subyektlarining rivojlanishini rag'batlantiradi, hunarmandchilik sektorining kengayishiga xizmat qiladi hamda xizmatlar bozorini faollashtiradi.

Turizm klasterining shakllanishi hududning investitsion jozibadorligini ham oshiradi [9]. Chunki ushbu jarayonda xizmatlar tizimi yaxlitlashadi va infratuzilma barqarorlashadi. Bu esa yangi mehmonxona loyihalari, servis obyektlari hamda transport xizmatlari uchun investitsiya oqimini rag'batlantiradi (2-jadval).

2-jadval. Ichki turizmning YAIMdagi hissasi [10]²

Yil	Ulushi
2023-yil	2,3 %
2024-yil	2,6 %
2025-yil	2,9 %

2023–2025-yillar davomida ichki turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Mazkur o'sish ichki sayohatlarga bo'lgan talabning ortishi, turizm infratuzilmasining rivojlanishi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarining kuchayishi bilan izohlanadi.

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.



Natijada ichki turizm xizmatlar sohasining muhim tarkibiy qismiga aylanib, milliy iqtisodiyot rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, ichki turistlar soni so'nggi uch yil davomida sezilarli darajada oshgan. Bu holat aholining sayohat madaniyati shakllanib borayotganini hamda ichki turizm tashqi turizmga muqobil yo'nalishga aylanayotganini anglatadi. Shuningdek, mamlakat bo'ylab hududiy turizm markazlari shakllanib bormoqda va ichki turizm iqtisodiy omil sifatida mustahkamlanmoqda. YAIMdagi ulushning oshib borishi ichki turizm xizmatlar sektorining rivojlanayotganini, hududiy bandlikning ortayotganini hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jarayonlari kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Ichki turizm hududiy rivojlanishni jadallashtirib, mehmonxona va servis sohasining rivojlanishiga turtki bermoqda. Tadqiqot natijalariga asosan ichki turizm uchun arzon mehmonxona paketlari sonini ko'paytirish, hududiy turizm marketingini kuchaytirish hamda qisqa muddatli dam olishga mo'ljallangan weekend turizm dasturlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, ichki turizmni rivojlantirish O'zbekiston uchun nafaqat ijtimoiy, balki strategik iqtisodiy yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, mehmonxona sanoati ushbu o'sish jarayonining asosiy foyda ko'ruvchi tarmoqlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
2. Porter, M. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998.
3. Hjalager, A.-M. Tourism Clusters and Innovation // Tourism Management. – 2000.
4. Scott, N., Cooper, C., Baggio, R. Destination Networks // Tourism Management. – 2008.
5. OECD. Tourism Trends and Policies. – 2020.
6. UNWTO. Tourism and Competitiveness Report. – 2019.
7. UNESCO World Heritage Centre. Ichan Kala. – <https://whc.unesco.org/en/list/543/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. – Rasmiy sayt: <https://stat.uz/>
9. World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index – 2024. – <https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024>
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. – <https://stat.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>